



XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA LINGVOKULTUROLOGIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Babaeva Nodira Abdujalolovna,

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti,

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada xorijiy tillarni o'rganish masalasidagi eng dolzarb omillardan biri – lingvokulturologik kompetensiya masalasi tahlil etilgan. O'rganilayotgan mamlakat tili bilan bir qatorda madaniyati, urf-odati, tarixi va ijtimoiy hayotini o'rganish jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy tillar, lingvokulturologiya, kompetensiya, konsepsiya, madaniy omillar, samaradorlik.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari filolog talabalarning xorijiy tilni o'qitishda lingvokulturologik kompetensiyasini shakllantirish masalalari, shuningdek, muayyan mamlakat tilini o'qitish bilan birga uning madaniyatini ham o'qitish metodikalari tahliliga e'tibor qaratish lozim.

Turli olimlarning fikr va g'oyalari asosida yangi fan – lingvokulturologiya fani vujudga kelgan. Uni XX asrning 90-yillarida shakllangan lingvistikaning mustaqil yo'nalishi deb hisoblash mumkin. "Lingvokulturologiya" atamasi oxirgi o'n yilliklarda V.N.Teliya rahbarlik qiladigan frazeologik maktabning tadqiqotlari hamda Yu.S.Stepanova, A.D.Arutyunova, V.V.Vorobev, V.Shak-lein, V.A.Maslova kabi boshqa tadqiqotchilarning ishi bilan bog'liq ravishda paydo bo'ldi[1].

V.A.Maslova, V.V.Vorobev va V.V.Krasnyxlarning lingvokulturologiyaga bo'lgan yondashuvlari bir xil va buni quyidagicha ta'riflaydi, lingvokulturologiya – bu «lingvistika va madaniyatshunoslik kesishuvida vujudga kelgan fan, u tilda aks etib, xalq madaniyatining namoyon bo'lishini tadqiq etadi» hamda, «madaniyatni til va diskursda



namoyon bo'lishi, aks etilishi va mustahkamlanishini o'rganuvchi fandir»deb ta'kidlashadi[2].

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlariga qo'shilgan holda lingvokulturologiyaning amaliy ahamiyati (muloqotda qo'llanilishi) hamda chet tilni o'qitishda o'sha mamlakatning madaniyatini o'rgatish bu leksika, grammatika, fonetika kabi o'rganish muhim bo'lgan bilimlar deb hisoblaymiz.

Olimlardan V.V. Vorobev, L.A.Koneva, D.I.Bashurina, I.V.Xarchenkova bir fikrda yakdil bo'lib, lingvokulturologik kompetensiya tilda namoyon bo'lgan madaniyat va madaniy qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar tizimidan iborat, deb hisoblaydilar.

I.V.Xarchenkovaning fikrini tahlil qilish asosida, biz lingvokulturologik kompetensiyani tilda namoyon bo'lgan tizimli tashkillashtirilgan bilimlarning tilda aks etgan majmui, lisoniy va tildan tashqari omillarning, shuningdek, tahliliy va kommunikativ ko'nikmalarning aksiologik va semiotik talqiniga tayyorlik, deb ta'riflaymizki, bu esa o'rganilayotgan tilning mamlakatiga xos etnomadaniy qadriyatlari va konseptlar sohasi bilan tanishuv jarayonida shakllanadi[3].

Aynan ushbu omillar filolog talabalarga xorijiy til va madaniyatni o'qitishdagi muammolar, chet tillarni o'qitishda lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirishda dastur va darsliklar tahlili, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarning lingvokulturologik kompetensiyasini shakllantirish hamda til o'qitishda lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirishda rolli o'yinlar va interfaol metodlardan foydalanishning amaliy ahamiyatiga e'tibor qaratish lozim. Chet tilni o'rganish mobaynida tili o'rganilayotgan mamlakatning madaniyati, urf-odatlar, an'analari o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'z navbatida xorijiy tillarda muloqotga kiruvchi yoshlarimizning safini kengayib borishiga olib kelmoqda. Til orqali madaniyatni o'rganish – ta'limda bir-biridan ajratib bo'lmaydigan qism bo'lib, bugungi kunda til o'rganish sohasi doimo muhim ahamiyat kasb etadigan, maqsadga yetaklaydigan birlamchi asos hisoblanadi va u ham xorijiy tilni o'rgatish sohasiga katta e'tibor qaratadigan asosiy nuqta hisoblanadi. Xorijiy til yo'nalishidagi talabalarga til va madaniyatni integrallashgan xolda



o'rgatishda lingvokulturemalarning interferensiya va transpozitsion tipologiyasi aniqlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy tillarni o'rgatishda talabalarning madaniy to'siqlarga duch kelish muammolari quyidagicha aniqlash mumkin:

1. Xorij va o'zbek tilida madaniyatlararo muloqot jarayonida;
2. Lingvokulturema va lingvokulturologik leksikalarda;
3. Maqol va iboralarda;
4. Matnlarda uchragan milliy-madaniy xususiyatlarida;
5. Lakuna va realiyalarda;

Xorijiy tillarni o'qitishda lingvokulturologiya yangi fan sifatida kirib kelishiga ko'plab olimlarning tadqiqotlari va izlanishlari natijasida yuzaga keldi va shakllana boshladi. Lingvokulturologiya faniga bo'lgan qiziqish bugungi kunda yangi qirralarini kashf qilmoqda va ko'plab ilmiy muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Xorijiy tilni o'qitishda lingvokulturologiyaga oid komponentlarni jalb qilish va lingvokulturologik vaziyatni hisobga olish o'rganilayotgan tilda uning sohiblari bilan savodxonlarcha muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish uchun zarur, chunki buning uchun ham lisoniy vositalar bilan ham dunyo haqidagi umumiy, ijtimoiy-madaniy bilimlarni egallash zarur.

Xorijiy tilni o'qitishda o'ja jamiyat madaniyatini ajratib bo'lmaydi. Madaniyat mohiyatan, avvalo, milliydir, chunki milliy belgilar (milliy til, milliy idrok, milliy mentalitet va psixologiya)siz madaniyatni tasavvur qilish qiyin. Milliy madaniyatning o'zak qismiga xos birinchi belgi tildir. Til deganda ikki ma'no anglashiladi: birinchisi – ma'lum bir xalqqa, etnosga xos tarixiy-madaniy hodisa, ikkinchisi – milliy-ma'naviy madaniyatni o'zlashtirganlik darajasi. Til millatning ulkan boyligi va bebaho mulki hisoblanadi. Til millat belgisi sifatida uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadi va doimo ma'lum bir etnosga xos belgi sifatida mavjud bo'lib kelgan hamda tarixiy-madaniy hodisa sifatida ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi.

Xorijiy til o'rganuvchi talabalar kompetentlikka ega bo'lish va kompetensiyaning mazmunini tushunish va ushbu malakaning turli tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan xususiyatlari va mohiyatini tahlil qilish orqali erishish mumkin. Kompetensiya tushunchasi



kasb faoliyatida o'z qobiliyatlarini mustaqil ro'yobga chiqaruvchi shaxsning integral xususiyatlari sifatida ko'rib chiqilgan. Kompetensiya hozirgi vaziyatda alohida dolzarblik kasb etib, o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lish imkonini beradi.

Lingvokulturologik kompetensiya borasidagi ta'riflar tahlili bir nechta xulosa qilish imkonini beradi. Birinchidan, lingvokulturologik kompetensiya tushunchasining ko'plab definitsiyalari aniqlandi. Bu "lingvokulturologik kompetensiya" terminining murakkabligi bilan izohlanadi, zero, u bir nechta tarkibiy qismlardan iborat: lingvistika, kulturologiya va kompetensiya shular jumlasidan. Ularning har biri ko'pqirrali, bu esa lingvokulturologik kompetensiyaning ko'plab ta'riflarini yuzaga keltiradi.

Xorijiy tilni o'rganish mobaynida talabalar o'rganilayotgan mamlakatning madaniyati, urf-odatlarini, an'analarini bilish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Shu bilan birga bu, o'z navbatida, bir qancha qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Auditoriyada talabalarning bilim darajasi teng emasligi, guruhda talabalar sonining ko'pligi, lisoniy muhit mavjud emasligi o'quvchilarga xitoy tili va madaniyatini o'rganishga to'sqinlik qilmoqda.

Xorijiy mamlakatlar tilini yaxshi o'zlashtirgan va o'rganayotgan talabalarda quyidagi lingvokulturologik interferensiya, ya'ni xorij va o'zbek tilida madaniyatlararo muloqot jarayonida; lingvokulturologik leksikalarda; maqol va iboralar talqinida; matnlarda uchragan milliy madaniy xususiyatlarda; lakuna va realiyalarda; rang va raqamlardagi milliy madaniy xususiyatlardagi qiyinchiliklar aniqlandi.

Xorijiy tillarni interfaol metod orqali o'qitish ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi doimiy o'zaro munosabatlarni ko'zda tutadi va shuning uchun u auditoriya bilan o'zaro munosabat o'rnatishga undaydi. Xorijiy tilni o'qitishda madaniy tusdagi belgilar va madaniy ma'lumotlarni aniqlash va tushunishga qaratilgan tahliliy faoliyatga o'rgatish alohida ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tilni o'qitishda ham interfaol metodlarni qo'llash yaxshi samara bermoqda.

Xorijiy tillarni o'qitishda mashqlar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning olgan bilimlarini mashqlar orqali mustahkamlash eng yaxshi usullardan biridir. Xorijiy tilda talabalarning lingvokulturologik kompetensiyasini shakllantiruvchi lisoniy va nutqiy,



retseptiv va reproduktiv mashqlar tizimi ishlab chiqish orqali muayyan samaralarga erishish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Телия В.Н. Первоочередные задачи и методологические проблемы исследования фразеологического состава языка в контексте культуры // Фразеология в контексте культуры. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 16 с.
2. Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2002. – С.12.; Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С.27
3. Воробьев В.В. Лингвокультурология. – М.: Издательство РУДН, 2006. – С. 206.